XITOY TASHQI SIYOSATIDA “YUMSHOQ KUCH”NING ROLI: IMKONIYATLAR, CHEKLOVLAR VA MARKAZIY OSIYO KONTEKSTI

Fayyoza Yodgorova
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
s.f.d., proffesor Farhod Karimov
fayyozashukhratovna3@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Xitoy tashqi siyosatida “yumshoq kuch” konsepsiyasining o‘rni, asosiy vositalari, mintaqaviy qabul qilinishi va amaliy cheklovlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy savoli quyidagicha qo‘yiladi: Xitoyning yumshoq kuch strategiyasi xalqaro jozibadorlikni oshirish vositasimi yoki iqtisodiy va geosiyosiy ta’sirni legitimlashtirish mexanizmimi? Maqolada Joseph Nye tomonidan ishlab chiqilgan yumshoq kuch nazariyasi Xitoy tashqi siyosatining rasmiy diskursi, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi, Konfutsiy institutlari, ta’lim diplomatiyasi va Markaziy Osiyo tajribasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Metodologik jihatdan kontent-tahlil, qiyosiy tahlil va diskursiv yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xitoy yumshoq kuchi so‘nggi yillarda institutsional jihatdan kuchaygan, ammo uning samaradorligi barcha hududlarda bir xil emas. Ayrim davlatlarda Xitoy rivojlanish, investitsiya va infratuzilma hamkori sifatida ijobiy qabul qilinsa, boshqa hududlarda qarz, siyosiy ta’sir, axborot nazorati va ishonch muammolari yumshoq kuchning jozibadorligini cheklaydi. Shu sababli Xitoyning xalqaro nufuzi faqat iqtisodiy qudratga emas, balki uning siyosiy xatti-harakati, kommunikativ ishonchliligi va mahalliy auditoriyalar bilan qanday munosabat o‘rnatishiga ham bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Xitoy, tashqi siyosat, yumshoq kuch, Konfutsiy institutlari, madaniy diplomatiya, ta’lim diplomatiyasi, “Bir makon, bir yo‘l”, Markaziy Osiyo,

O‘zbekiston, xalqaro imij.

Kirish.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlarning ta’sir imkoniyatlari faqat harbiy qudrat, iqtisodiy bosim yoki moddiy resurslar bilan o‘lchanmaydi. Global siyosatda davlatning qanday qabul qilinishi, uning xalqaro auditoriya nazaridagi jozibadorligi, siyosiy xatti-harakatining legitimligi va madaniy ramzlarining ta’sirchanligi ham muhim strategik omilga aylangan. Aynan shu nuqtai nazardan “yumshoq kuch” tushunchasi xalqaro munosabatlar nazariyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Joseph S. Nye yumshoq kuchni boshqa aktorlarni majburlash yoki sanksiyalar orqali emas, balki jalb qilish, ishontirish va jozibadorlik orqali kerakli natijaga erishish qobiliyati sifatida izohlaydi.[1] Bu ta’rifning muhim jihati shundaki, yumshoq kuch tashqi siyosatda bevosita bosimga emas, balki rozilik, ijobiy tasavvur va ishonch shakllanishiga tayanadi. Shu bilan birga, yumshoq kuchni faqat madaniy targ‘ibot yoki til o‘rgatish dasturlari bilan cheklash ham to‘g‘ri emas. Nye ta’kidlaganidek, davlatning yumshoq kuch manbalari uning madaniyati, siyosiy qadriyatlari va tashqi siyosatining boshqalar nazarida legitim ko‘rinishiga bog‘liq.[2]

Xitoyning XXI asrdagi tezkor yuksalishi ushbu nazariyani amaliy jihatdan o‘rganish uchun misol bo‘lib xizmat qiladi. Bir tomondan, Xitoy iqtisodiy salohiyati, texnologik taraqqiyoti, infratuzilma loyihalari va savdo aloqalari orqali global maydonda tobora faolroq ishtirok etmoqda. Ikkinchi tomondan, Pekin xalqaro jamoatchilik oldida o‘zini “tinch rivojlanish”, “o‘zaro manfaatli hamkorlik”, “taraqqiyot sherikligi” va “insoniyatning umumiy taqdir hamjamiyati” g‘oyalari orqali ifodalashga intilmoqda.[3] Bu esa Xitoy tashqi siyosatida yumshoq kuchning oddiy madaniy vosita emas, balki kengroq strategik kommunikatsiya mexanizmi sifatida

[1] Nye, Joseph S. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: PublicAffairs, 2004, p. 5; Nye, Joseph S. “Public Diplomacy and Soft Power.” *The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science*, vol. 616, no. 1, 2008, pp. 94-95.

[2] Nye, Joseph S. “Public Diplomacy and Soft Power,” pp. 94-96.

[3] State Council Information Office of the PRC, *A Global Community of Shared Future*, 2023.

namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Xitoyning yumshoq kuch strategiyasini biryoqlama ijobiy tasvirlash emas, balki uning manbalari, vositalari, mintaqaviy qabul qilinishi va cheklovlarini ilmiy-tahliliy asosda ko‘rsatishdir.

Asosiy qism

Bugungi kundagi rivojlanayotgan davlatlar sirasida turib ham ta’sir doirasini kengaytirib borayotgan Xitoy tashqi siyosati misolida yumshoq kuch nazariyasining o‘rganilishi bir qator murakkabliklarni yuzaga chiqaradi. Klassik talqinda yumshoq kuch davlatning tabiiy jalb etuvchanligi, madaniy nufuzi va siyosiy qadriyatlarining boshqalar uchun ma’qul ko‘rinishi bilan bog‘liq. Xitoy tajribasida esa yumshoq kuch ko‘proq davlat tomonidan markazlashgan tarzda rejalashtiriladi va institutsional mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Maria Repnikova Xitoy yumshoq kuchining asosiy kanallari sifatida Konfutsiy institutlari, xalqaro kommunikatsiya, ta’lim va trening almashinuvlari hamda ommaviy diplomatik tadbirlarni ko‘rsatadi.[4] Bu jihatdan Xitoy yumshoq kuchi liberal demokratik davlatlardagi fuqarolik jamiyati, ommaviy madaniyat va mustaqil universitetlar orqali shakllanadigan yumshoq kuchdan farq qiladi. Xitoyda davlatning roli kuchli bo‘lgani sababli uning yumshoq kuchi ba’zan jozibadorlik va targ‘ibot chegarasida harakat qiladi. Bu esa uning samaradorligini ikki tomonlama qiladi: bir tomondan, resurslarni tez safarbar etish imkonini beradi; ikkinchi tomondan, tashqi auditoriyalarda “bu tabiiy madaniy ta’sirmi yoki siyosiy maqsadli kommunikatsiyami?” degan savolni kuchaytiradi.

Xitoy yumshoq kuchining eng ko‘zga ko‘rinadigan yo‘nalishlaridan biri madaniy diplomatiyadir. Konfutsiy institutlari Xitoy tili va madaniyatini targ‘ib qilish, akademik aloqalarni kengaytirish hamda Xitoy haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan. Falk Hartig ushbu institutlarni Xitoy jamoatchilik diplomatiyasining muhim vositasi sifatida baholab, ularni Xitoy tashqi siyosatining kengroq kommunikativ

[4] Repnikova, Maria. *Chinese Soft Power*. Cambridge: Cambridge University Press, 2022, pp. 1-8.

strategiyasi bilan bog‘laydi.[5] Darhaqiqat, til o‘rganish, madaniy tadbirlar, an’anaviy san’at, xattotlik, bayramlar va talaba almashinuvlari orqali Xitoy o‘zini faqat iqtisodiy gigant sifatida emas, balki qadimiy sivilizatsiya va madaniy markaz sifatida namoyon qilishga urinadi. Biroq bu yo‘nalishning cheklovi ham mavjud: Konfutsiy institutlari ayrim davlatlarda akademik erkinlik, universitet mustaqilligi va siyosiy mavzularning cheklanishi bilan bog‘liq bahslarni keltirib chiqargan. Shuning uchun ularning samaradorligi faqat ochilgan institutlar soni yoki tadbirlar ko‘lami bilan emas, balki qabul qiluvchi mamlakatdagi ishonch darajasi, universitetlar muhitining ochiqligi va siyosiy sezgir mavzularga munosabat bilan belgilanadi.

Ta’lim diplomatiyasi ham Xitoy yumshoq kuchining muhim tarkibiy qismidir. Xorijiy talabalar uchun stipendiyalar, universitetlararo hamkorlik, qisqa muddatli treninglar, ilmiy almashinuvlar va kasbiy tayyorgarlik dasturlari Xitoy haqidagi shaxsiy tajribani shakllantiradi. Bu tajriba oddiy rasmiy bayonotlarga qaraganda ta’sirchanroq bo‘lishi mumkin, chunki Xitoyda tahsil olgan talaba yoki mutaxassis keyinchalik o‘z mamlakatida Xitoy bilan ishlaydigan ijtimoiy va professional ko‘prikka aylanadi. Rashidov, Mullojonov, Rashidova va Lemon Tojikiston misolida Xitoy va Rossiyaning ta’lim orqali yumshoq kuch ishlatishini tahlil qilib, Xitoy stipendiyalari va akademik dasturlari ta’sir imkoniyatini kengaytirayotganini, biroq Rossiyaning tarixiy, til va madaniy ustunligi bu jarayonni cheklashini ko‘rsatadi.[6] Bu xulosa Markaziy Osiyo uchun muhim: Xitoy iqtisodiy jihatdan kuchli aktor bo‘lsa-da, madaniy yaqinlik va tarixiy ijtimoiy xotira bo‘yicha Rossiya hanuz sezilarli ustunlikka ega. Demak, Xitoyning ta’lim diplomatiyasi tez kengayayotgan bo‘lsa-da, u avtomatik ravishda chuqur ijtimoiy jozibadorlikka aylanmaydi.

[5] Hartig, Falk. *Chinese Public Diplomacy: The Rise of the Confucius Institute*. London and New York: Routledge, 2016, pp. 1-20.

[6] Rashidov, Tuychi, Parviz Mullojonov, Umayra Rashidova, and Edward Lemon. “Academic Diplomacy: The Educational Aspects of Chinese and Russian Soft Power in Tajikistan.” *Nationalities Papers*, vol. 52, no. 5, 2024, pp. 969-983.

Xitoy yumshoq kuchining yana bir yirik platformasi “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusidir. Rasmiy Pekin ushbu tashabbusni qadimgi Ipak yo‘li an’analarining zamonaviy davomi, infratuzilmaviy bog‘liqlik, savdo erkinligi, moliyaviy hamkorlik va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish vositasi sifatida taqdim etadi.[7] Shu ma’noda, “Bir makon, bir yo‘l” faqat yo‘l, port, temiryo‘l yoki energetika loyihalari majmui emas; u Xitoyning xalqaro tartib haqidagi tasavvurini ifodalovchi normativ loyiha hamdir. Pekin bu tashabbus orqali o‘zini rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojlarini tushunadigan, infratuzilma kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradigan va G‘arbga muqobil taraqqiyot hamkori sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, William Callahan “Asia Dream” va “Belt and Road” g‘oyalari Xitoyning yangi mintaqaviy tartib haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.[8] Bu yondashuv “Bir makon, bir yo‘l”ni faqat iqtisodiy loyiha sifatida emas, balki geosiyosiy ramz va legitimatsiya vositasi sifatida ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Biroq “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining yumshoq kuch sifatidagi samaradorligi ziddiyatlidir. Infratuzilma, kredit, investitsiya va transport aloqalari qabul qiluvchi mamlakatlarda amaliy foyda keltirishi mumkin. Ayniqsa, transport yo‘laklari, energetika loyihalari va sanoat kooperatsiyasi iqtisodiy rivojlanish ehtiyoji kuchli bo‘lgan davlatlar uchun jozibador ko‘rinadi. Lekin aynan shu loyihalar qarz barqarorligi, shartnomalar shaffofligi, ekologik standartlar, mahalliy ishchi kuchi ulushi va siyosiy qaramlik xavotirlarini ham yuzaga chiqaradi. Shambaugh Xitoy global maydonda kuchli iqtisodiy ishtirokchiga aylangan bo‘lsa-da, uning xalqaro jozibadorligi ko‘pincha siyosiy ishonch, qadriyatlar va institutsional ochiqlik masalalarida cheklanishini ta’kidlaydi.[9] Demak, Xitoyning moddiy resurslari katta bo‘lishi yumshoq kuchning muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Yumshoq kuchning

[7] The State Council Information Office of the People’s Republic of China. *The Belt and Road Initiative: A Key Pillar of the Global Community of Shared Future*. Beijing, 2023.

[8] Callahan, William A. “China’s ‘Asia Dream’: The Belt Road Initiative and the New Regional Order.” *Asian Journal of Comparative Politics*, vol. 1, no. 3, 2016, pp. 226-243.

[9] Shambaugh, David. *China Goes Global: The Partial Power*. Oxford: Oxford University Press, 2013, pp. 207-232.

asosiy sinovi shundaki, auditoriya bu resurslarni qanday talqin qiladi: yordam sifatidami, sheriklik sifatidami yoki ta’sir vositasi sifatidami?

Xitoy rasmiy diskursida “insoniyatning umumiy taqdir hamjamiyati” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. 2023-yilda e’lon qilingan rasmiy oq kitobda bu g‘oya hamkorlik, xavfsizlik, taraqqiyot, sivilizatsiyalararo almashinuv va ekologik barqarorlik yo‘nalishlari bilan bog‘liq tarzda bayon qilinadi.[10] Ushbu diskursning yumshoq kuchdagi vazifasi Xitoyni faqat milliy manfaatini ko‘zlovchi davlat sifatida emas, balki global muammolarni birgalikda hal etishga chaqiruvchi mas’uliyatli aktor sifatida ko‘rsatishdir. Biroq Linus Hagström va Astrid Nordin Xitoyning “uyg‘unlik siyosati”ni tanqidiy tahlil qilib, bunday diskurs ayrim hollarda jozibadorlik yaratish bilan birga, siyosiy nizolarni yumshatib ko‘rsatish yoki muqobil talqinlarni cheklash vositasiga ham aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.[11] Shuning uchun Xitoyning rasmiy tili bilan amaliy siyosati o‘rtasidagi muvofiqlik yumshoq kuch samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

So‘nggi yillardagi reytinglar Xitoyning xalqaro imiji kuchayayotganini ko‘rsatadi, biroq bunday ko‘rsatkichlarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur. Brand Finance tomonidan e’lon qilingan Global Soft Power Index 2026 ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoy 2026-yilda global yumshoq kuch bo‘yicha AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda qayd etilgan va ayrim atributlar bo‘yicha AQSHdan yuqori baholangan.[12] Bu natija Xitoyning uzoq muddatli siyosiy rejalashtirish, iqtisodiy ko‘rinuvchanlik, texnologik taraqqiyot va madaniy kommunikatsiya orqali xalqaro obro‘sini oshirishga urinayotganini tasdiqlaydi. Lekin indeks natijalari yumshoq kuchning to‘liq siyosiy samaradorligini anglatmaydi. Reytinglar ko‘proq umumiy tasavvur, tanilish, obro‘ va ayrim sohalardagi bahoni aks ettiradi; real diplomatik natija esa ikki tomonlama

[10] The State Council Information Office of the People’s Republic of China. *A Global Community of Shared Future: China’s Proposals and Actions*. Beijing, 2023.

[11] Hagström, Linus, and Astrid H. M. Nordin. “China’s ‘Politics of Harmony’ and the Quest for Soft Power in International Politics.” *International Studies Review*, vol. 22, no. 3, 2020, pp. 507-525.

[12] Brand Finance. *Global Soft Power Index 2026: Executive Summary*. London: Brand Finance, 2026.

munosabatlar, mahalliy siyosiy kontekst va jamiyatdagi ishonch darajasiga bog‘liq. Shu bois Xitoyning reytinglardagi o‘sishini muvaffaqiyat belgisi sifatida ko‘rish mumkin, ammo bu muvaffaqiyatning barqarorligi alohida tahlil talab qiladi.

Markaziy Osiyo Xitoy yumshoq kuchining imkoniyat va cheklovlarini ko‘rsatadigan muhim mintaqadir. Mintaqa Xitoy uchun geografik yaqinlik, energetika, transport yo‘laklari, xavfsizlik va Yevroosiyo bog‘liqligi nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega. Xitoy bu yerda infratuzilma, savdo, kredit, ta’lim va madaniyat orqali o‘z ishtirokini kuchaytirmoqda. Vanderhill, Joireman va Tulepbayeva Markaziy Osiyoda Xitoy yumshoq kuchining ko‘rinadigan kanallari sifatida Konfutsiy institutlari, media ta’siri, talabalar almashinuvi va jamoatchilik diplomatiyasi tadbirlarini ko‘rsatadi, ammo iqtisodiy ta’sirning avtomatik ravishda ijobiy ijtimoiy qabulga aylanmasligini ta’kidlaydi.[13] Bu xulosa juda muhim: Xitoy mintaqada iqtisodiy jihatdan kuchli, ammo yumshoq kuch uchun iqtisodiy ko‘rinuvchanlik yetarli emas. Jamiyat Xitoyni foydali sherik sifatida ko‘rishi mumkin, lekin shu bilan birga uning uzoq muddatli ta’siridan xavotirlanishi ham mumkin.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, Xitoyning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuchi Rossiya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va AQSHning ta’sir vositalari bilan raqobat maydonida shakllanadi. Rossiya til, mehnat migratsiyasi, tarixiy xotira va ommaviy axborot maydoni orqali kuchli ijtimoiy baza saqlab qolgan. Turkiya madaniy yaqinlik, turkiy dunyo diskursi, ta’lim va diniy-madaniy aloqalar orqali jozibadorlik hosil qiladi. Yevropa Ittifoqi esa ta’lim, boshqaruv standartlari, huquqiy islohotlar va iqtisodiy diversifikatsiya orqali muqobil hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. Xitoyning ustunligi asosan infratuzilma, savdo, investitsiya va texnologiyada ko‘rinadi. Ammo yumshoq kuch nuqtai nazaridan bu ustunlikning cheklovi shundaki, u ko‘pincha madaniy yaqinlikdan ko‘ra iqtisodiy pragmatizmga tayanadi. Ya’ni Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy bilan hamkorlikni zarur va foydali deb bilishi mumkin, lekin bu har doim ham chuqur ijtimoiy jozibadorlik yoki qadriyatlar darajasidagi yaqinlikni anglatmaydi.

[13] Vanderhill, Rachel, Sandra F. Joireman, and Roza Tulepbayeva. “In the Shadow of the Dragon: Chinese Soft Power in Central Asia.” *International Affairs*, vol. 101, no. 4, 2025, pp. 1441-1461.

O‘zbekiston kontekstida Xitoy bilan hamkorlikning amaliy ahamiyati ayniqsa sezilarli. So‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar savdo, investitsiya, transport, energetika, raqamli texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi va ta’lim sohalarida kengaymoqda. 2025-yil iyun oyida Xitoy va O‘zbekiston rahbarlari savdo va investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish, Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temiryo‘lini ilgari surish, sun’iy intellekt, yangi energetika, aqlli qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ta’kidladilar.[14] 2025-yil sentabr oyidagi rasmiy uchrashuvlarda ham O‘zbekiston tomoni Xitoyning global boshqaruv bo‘yicha tashabbuslarini dolzarb deb baholagan.[15] Bu faktlar Xitoyning O‘zbekiston uchun faqat iqtisodiy sherik emas, balki texnologik va infratuzilmaviy modernizatsiya bilan bog‘liq muhim tashqi aktor sifatida ko‘rilayotganini ko‘rsatadi. Biroq O‘zbekistonning ko‘pvektorli tashqi siyosati shuni anglatadiki, Toshkent Xitoy bilan yaqin hamkorlikni boshqa markazlar bilan aloqalar hisobiga emas, balki muvozanatli tashqi siyosat doirasida olib borishga intiladi.

O‘zbekiston misolida Xitoy yumshoq kuchining ijobiy jihatlari aniq ko‘rinadi: infratuzilma loyihalari, ta’lim imkoniyatlari, til o‘rganish dasturlari, stipendiyalar, savdo aloqalari va texnologik hamkorlik Xitoy haqidagi pragmatik ijobiy tasavvurni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa yoshlar, tadbirkorlar, texnologiya sohasi vakillari va Xitoy bilan bevosita ishlaydigan mutaxassislar uchun bu hamkorlik real imkoniyat sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, ehtiyotkor munosabat ham mavjud: jamiyatda Xitoy kapitalining ko‘lami, qarz masalasi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobati, mehnat bozori va madaniy masofa haqida savollar uchrashi tabiiy. Bu holat Xitoy yumshoq kuchining O‘zbekistondagi xarakterini aniqlaydi: u keskin rad etilmaydi, lekin to‘liq va shartsiz jozibadorlikka ham ega emas. U asosan iqtisodiy foyda, rivojlanish pragmatizmi va davlatlararo ishonchga tayanadi. Shu sababli

[14] Ministry of Foreign Affairs of the People’s Republic of China. “Xi Jinping Meets with Uzbek President Shavkat Mirziyoyev.” 17 June 2025.

[15] President of the Republic of Uzbekistan. “Leaders of Uzbekistan and China Discuss Matters of Further Strengthening Strategic Partnership.” 2 September 2025.

O‘zbekistonda Xitoy yumshoq kuchining barqarorligi iqtisodiy loyihalarning natijadorligi, shaffoflik, mahalliy manfaatlar inobatga olinishi va madaniy aloqalarning o‘zaro hurmat asosida rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Xitoy yumshoq kuchining eng muhim cheklovlaridan biri uning yuqoridan pastga qarab tashkil etilishidir. Yumshoq kuch tabiatan ishonch, erkin almashinuv va ixtiyoriy jozibadorlikka tayanadi. Agar tashqi auditoriya kommunikatsiyani haddan tashqari rasmiy, nazoratli yoki siyosiy maqsadli deb qabul qilsa, yumshoq kuchning samarasi pasayadi. Kingsley Edney Xitoyning tashqi kommunikatsiyasi va targ‘ibot tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, davlat tomonidan kuchli boshqariladigan axborot strategiyasi jozibadorlikni kuchaytirish bilan birga ishonch muammosini ham yuzaga chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi.[16] Bu masala ayniqsa universitetlar, media va fuqarolik jamiyati erkinligi yuqori qadrlanadigan jamiyatlarda dolzarbdir. Yumshoq kuch faqat “biz haqimizda ijobiy gapiring” degan yondashuv orqali ishlamaydi; u tanqidga ochiqlik, ishonchli institutlar va amaliy siyosatning rasmiy diskurs bilan mos kelishini talab qiladi.

Ikkinchi cheklov Xitoyning ichki siyosati va xalqaro bahsli masalalari bilan bog‘liq. Yumshoq kuchda tashqi auditoriya davlatning faqat madaniy tadbirlariga emas, balki siyosiy modeliga, inson huquqlari bo‘yicha bahslarga, axborot siyosatiga va qo‘shni hududlar bilan munosabatlariga ham qaraydi. Shuning uchun Xitoy bir tomondan qadimiy sivilizatsiya, iqtisodiy taraqqiyot va texnologik modernizatsiya ramzi sifatida jozibador bo‘lsa, ikkinchi tomondan siyosiy yopiq tizim, senzura va geosiyosiy keskinliklar sabab tanqidga uchraydi. Bu ziddiyat Xitoy yumshoq kuchining “paradoksal” tabiatini ko‘rsatadi: uning moddiy imkoniyatlari ortib bormoqda, ammo siyosiy ishonchlilik masalasi hamon asosiy sinov bo‘lib qolmoqda.

Uchinchi cheklov iqtisodiy hamkorlikning yumshoq kuch bilan aralashib ketishida namoyon bo‘ladi. Agar investitsiya va infratuzilma loyihalari mahalliy rivojlanish ehtiyojlariga mos tushsa, ular Xitoyga nisbatan ijobiy munosabatni

[16] Edney, Kingsley. “Soft Power and the Chinese Propaganda System.” *Journal of Contemporary China*, vol. 21, no. 78, 2012, pp. 899-914.

kuchaytiradi. Ammo agar loyiha shaffof bo‘lmasa, qarz yuki oshsa yoki mahalliy aholi foydani bevosita his qilmasa, xuddi shu iqtisodiy vosita salbiy tasavvur hosil qilishi mumkin. Demak, iqtisodiy kuch yumshoq kuchga aylanishi uchun u adolatli, ochiq va mahalliy manfaatlarga mos tarzda qabul qilinishi zarur. Xitoy uchun asosiy muammo ham shunda: katta resurslar mavjud, lekin ularni jozibadorlikka aylantirish mexanizmi har doim ham muammosiz ishlamaydi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, Xitoy tashqi siyosatida yumshoq kuch tobora muhim strategik vositaga aylanmoqda. Pekin madaniy diplomatiya, ta’lim almashinuvi, rasmiy diskurs, xalqaro kommunikatsiya, texnologik hamkorlik va “Bir makon, bir yo‘l” kabi tashabbuslar orqali o‘z xalqaro imijini mustahkamlashga intilmoqda. Biroq bu strategiyani faqat muvaffaqiyat tarixi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli emas. Xitoy yumshoq kuchi bir vaqtning o‘zida ham jozibadorlik ishlab chiqaradi, ham geosiyosiy ta’sirni legitimlashtirish vazifasini bajaradi. Uning samaradorligi auditoriyaning tarixiy tajribasi, siyosiy qadriyatlari, iqtisodiy manfaatlari va Xitoyga nisbatan ishonch darajasiga bog‘liq. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston misolida Xitoy foydali, zarur va istiqbolli hamkor sifatida ko‘rilmoqda, lekin bu munosabat ehtiyotkor pragmatizm bilan uyg‘unlashgan. Shu bois Xitoyning kelajakdagi xalqaro nufuzi faqat iqtisodiy qudrat yoki reytinglardagi o‘rni bilan emas, balki uning amaliy siyosati qanchalik ishonchli, shaffof va mahalliy manfaatlarga mos bo‘lishi bilan belgilanadi. Eng asosiy xulosa shuki, yumshoq kuchning haqiqiy manbai targ‘ibotning ko‘pligida emas, balki boshqalar tomonidan ixtiyoriy ravishda tan olinadigan ishonch va legitimlikdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brand Finance. *Global Soft Power Index 2026: Executive Summary*. London: Brand Finance, 2026.

2. Callahan, William A. “China’s ‘Asia Dream’: The Belt Road Initiative and the New Regional Order.” *Asian Journal of Comparative Politics*, vol. 1, no. 3, 2016, pp. 226-243.

3. Edney, Kingsley. “Soft Power and the Chinese Propaganda System.” *Journal of Contemporary China*, vol. 21, no. 78, 2012, pp. 899-914.

4. Hagström, Linus, and Astrid H. M. Nordin. “China’s ‘Politics of Harmony’ and the Quest for Soft Power in International Politics.” *International Studies Review*, vol. 22, no. 3, 2020, pp. 507-525.

5. Hartig, Falk. *Chinese Public Diplomacy: The Rise of the Confucius Institute*. London and New York: Routledge, 2016.

6. Ministry of Foreign Affairs of the People’s Republic of China. “Xi Jinping Meets with Uzbek President Shavkat Mirziyoyev.” 17 June 2025.

7. Nye, Joseph S. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: PublicAffairs, 2004.

8. Nye, Joseph S. “Public Diplomacy and Soft Power.” *The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science*, vol. 616, no. 1, 2008, pp. 94-109.

9. Nye, Joseph S. *The Future of Power*. New York: PublicAffairs, 2011.

10. President of the Republic of Uzbekistan. “Leaders of Uzbekistan and China Discuss Matters of Further Strengthening Strategic Partnership.” 2 September 2025.

11. Repnikova, Maria. *Chinese Soft Power*. Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

12. Rashidov, Tuychi, Parviz Mullojonov, Umayra Rashidova, and Edward Lemon. “Academic Diplomacy: The Educational Aspects of Chinese and Russian Soft Power in Tajikistan.” *Nationalities Papers*, vol. 52, no. 5, 2024, pp. 969-983.

13. Shambaugh, David. *China Goes Global: The Partial Power*. Oxford: Oxford University Press, 2013.

14. The State Council Information Office of the People's Republic of China. *A Global Community of Shared Future: China's Proposals and Actions*. Beijing, 2023.

15. The State Council Information Office of the People's Republic of China. *The Belt and Road Initiative: A Key Pillar of the Global Community of Shared Future*. Beijing, 2023.

16. Vanderhill, Rachel, Sandra F. Joireman, and Roza Tulepbayeva. "In the Shadow of the Dragon: Chinese Soft Power in Central Asia." *International Affairs*, vol. 101, no. 4, 2025, pp. 1441-1461.